

MINTAQA SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION JARAYONLAR TA’SIRINI BAHOLASH.

TATU Qarshi filiali assistenti
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna

Annotatsiya. Iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini takomillashtirishda innovatsion salohiyat muhim o‘rin tutishini hisobga olgan holda, mazkur ilmiy tezida innovatsion salohiyat omillari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, innovatsiya, salohiyat, innovatsion tizim, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ekonometrik omil.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ НА ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА.

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна,
Преподаватель Каршинского филиала
Ташкентского университета информационных
технологий имени Мухаммада Аль-Хоразми

Аннотация. Учитывая, что инновационный потенциал играет важную роль в совершенствовании отраслевой структуры экономики, в данной научной диссертации проанализированы факторы инновационного потенциала.

Ключевые слова: народное хозяйство, инновации, потенциал, инновационная система, научно-технический прогресс, эконометрический фактор.

ASSESSMENT OF THE IMPACT OF INNOVATIVE PROCESSES IN THE EFFECTIVE USE OF THE POTENTIAL OF THE REGION.

Assistant of the Branch against TATU
Mukhammadieva Yulduz Yusupovna

Annotation. Taking into account the importance of innovative potential in improving the network structure of the economy, innovative potential factors were analyzed in this scientific thesis.

Keywords: national economy, innovation, capacity, innovation system, scientific and technical progress, econometric factor.

Keyingi yillarda innovatsion landshaft sezilarli darajada rivojlandi. Birinchidan, iqtisodiy o'sish tendensiyalari ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot sohasiga investitsiyalarning turli shakllarda kiritilishi ko'p qutbli innovatsion manzarani yaratmoqda. O'rtacha va yuqori daromadli mamlakatlar o'rtasidagi texnologik tafovut qisqardi. Ikkinchidan, g'oyadan tijoratgacha bo'lgan jarayonning murakkabligi e'tirof etildi, bu insonlarning innovatsiyalar haqidagi tushunchalarning kengayishiga olib keldi. Uchinchidan, bugungi kunda innovatsion jarayon har qachongidan ham ochiq, hamkorlikda va xalqaro miqyosda olib borilmoqda.

So'nggi besh yillik islohotlar natijasida mamlakatimizda ilmiy-innovatsion faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, mamlakat va mintaqalarning innovatsion salohiyatini shakllantirish va yanada takomillashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqildi va tubdan yangilandi. Shunday bo'lsa ham innovatsion rivojlanish sohasida hal etilishi zarur bo'lgan quyidagi asosiy muammolar saqlanib qolmoqda:

Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlari ishlab chiqilmagan hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini ta'minlashga qaratilgan yechimlarni joriy qilishda innovatsion texnologiyalarga urg'u va ustuvorlik berish talab qilinmoqda.

Shu nuqtai nazardan mintaqalarni innovatsion salohiyatini chuqur tahlil qilish mavjud ko'rsatkichlar tizimidan foydlangan holda innovatsion salohiyatni mintaqa iqtisodiyotiga ta'sirin zamonaviy ekonometrik modellar asosida baholash dolzarb masala hisoblanadi.

Mintaqa iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar sonini tahliliga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami 79 ta korxonani tashkil etgan bo'lsa, so'nggi bir yilda 39 ta korxonalar, so'nggi ikki yilda 26 ta, so'nggi uch yilda esa 24 ta korxonalar innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida jami 7, Qurilishda 8 ta, ulgurji va chakana savdoda 20 ta, tashish va saqlashda 5 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha 11 ta, axborot va aloqa sohasida 5 ta, ta'limda 7 ta va ishlab chiqarish sanoatida 35 ta korxonalar innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullangan. So'nggi bir yillikda eng ko'p ishlab chiqarish sanoatida 17 ta, ulgurji va chakana savdoda 12

ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha 10 ta, eng kam ko'rsatkich esa tashish va saqlash, axborot va aloqada 3 ta korxonada innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqargan. So'nggi ikki va uch yillik davrlarni tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkichni ishlab chiqarish sanoati, ulgurji va chakana savdoda faoliyati yo'nalishlari qayd etgan bo'lsa, eng past

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni (birlik)

	Jami	2024 yilda birinchi marta o'zlashtirilgan	2022-2023 yillarda birinchi marta o'zlashtirilgan	2022- 2024yillarda takomillashtirilgan
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha	79	39	26	24
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7	6	5	4
Qurilish	8	5	5	6
Ulgurji va chakana savdo	20	12	6	10
Tashish va saqlash	5	3	5	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	10	3	5
Axborot va aloqa	5	3	6	3
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	6	6	2	2
Professional, ilmiy texnik faoliyat	7	5	5	4
Boshqarish bo'yicha faoliyat	5	3	5	4
Ta'lim	7	5	5	6



Ishlab chiqarish sanoati	35	17	14	12
Boshqa turdagi xizmatlar	7	5	6	4

ko‘rsatkich esa ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar faoliyati yo‘nalishiga to‘g‘ri kelgan.

Mintaqa shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi, (mln.so‘m)¹

	Jami	2024 yilda birinchi marta o‘zlashtirilgan	2022-2023 yillarda birinchi marta o‘zlashtirilgan	2022-2024 yillarda takomillashtirilgan
Qarshi sh.	604364,6	54302,9	8198,7	541863,1
Shaxrisabz sh.	3279,8	3045,9	233,9	—
<i>Tumanlar:</i>				
Chiroqchi	—	—	—	—
Mirishkor	700,2	—	700,2	—
Koson	3487,4	2500,3	987,1	—
Qarshi	3162,2	925,1	—	2237,1
Dehqonobod	2127,2	472,1	1655,1	—
Nishon	—	—	—	—
Kitob	38600,7	577,7	36637,7	1385,3
Shaxrisabz	1566,5	72,1	646,8	847,6
Kasbi	477,3	477,3	—	—
Muborak	8857,6	1490,9	7366,7	—
Qamashi	555,6	535,6	—	20,0

¹ Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari.



So‘nggi bir yilda ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi bo‘yicha yana Qarshi shahri (54302,9 mln.so‘m) eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etishgan. Eng past qiymatga Shaxrisabz Muborak p va Kasbi tumanlari ega bo‘lishgan. So‘nggi uch yilda Qarshi shahri 541863,1 mln.so‘mlik, Qarshi tumani esa 2237,1 mln.so‘mlik, Kitob tumani 1385,3 mln.so‘mlik innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi jami 667179,1 mln.so‘mni tashkil etgan. Ishlab chiqarish sanoati 544349,4 mln.so‘mlik mahsulot va xizmatlar ishlab chiqargan bu esa iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha umumiy ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmidagi ulushi 81,6% ulushni tashkil etgan.

Mintaqa shahar va tumanlar kesmida ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi bo‘yicha Qarshi shahri (393685,8 mln.so‘mlik) yetakchilik qilmoqda. Undan keyingi o‘rinlarda Kitob tumani 38587,9 mln.so‘mlik, Nishon tumani 8546,3 mln.so‘mlik natija bilan band etishgan. Eng past ko‘rsatkichlarni Kasbi (477,3 mln.so‘mlik), Mirishkor (700,2 mln.so‘mlik) tumanlari qayd etishgan. Mintaqa bo‘yicha o‘rtacha ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 41455,8 mln.so‘mni tashkil etgan. Ushbu o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqorida bo‘lgan faqat Qarshi shahrini qayd etish mumkin. Qolgan barcha hududlar o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha past natijani qayd etishgan. Mazkur hududlar ko‘rsatkichlarini o‘zrtacha ko‘rsatkichga nisbatan taqqoslaganda qariyb 1,5 barobardan 85 barobargacha intervalda keskin farqlar kuzatilmoqda. Bu esa, ishlab bajarilgan va sotilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi ko‘rsatkichi bo‘yicha mintaqa shahar va tumanlari o‘rtasida kuchli nomutanosibliklar mavjudligidan dalolat bermoqda.

Mintaqalarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlarni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini ta‘minlashga qaratilgan yechimlarni joriy qilishda innovatsion texnologiyalarga urg‘u va ustuvorlik berish talab qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupovna Yu.M. Qashqadaryo viloyati salohiyatini iqtisodiy tahlil ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11li.371-374.



2. Muxammadiyeva Yu.Yu. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN. 239-243

3. Ibragimov, N. N. (2021, april). Econometric modeling of public utilities. In *archive of conferences* (vol. 20, no. 1, pp. 54-55).

4. Muxammadiyeva Yu.Yu. Mintaqa salohiyatidan samarali foydalanishda bozor iqtisodiyotining roli. *Biznes-эксперт №12-2023* (43-45)

Muxammadiyeva Yu.Yu. ECONOMIC ANALYSIS OF THE REGION'S POWER TO ATTRACT FOREIGN INVESTMENTS. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN. 239-243



Research Science and
Innovation House

